

Mayda masshtabli tuproq kartalarini tuzish yo'llari

Bugun 28 noyabr 2018 yil ikkinchi juftlikda Yer resurslarini boshqarish fakulteti talabalariga Geodeziya va geoinformatika kafedrasida katta o'qituvchisi Abduraxmonov Sarvar Narzullayevich "Mayda masshtabli tuproq kartalarini tuzish yo'llari mavzusida Ochiq ma'ruza o'qidi. Ma'ruzada fakultet dekani Zarif Muqimov hamda Geodeziya va geoinformatika kafedrasida professor-o'qituvchilari ishtirok etishdi.

Ma'ruzachi Tuproq kartalarini ahamiyati, ularni tuzishdan maqsad, tuproqlarni xaritaga tushirish haqida talabalarga tushinchalar berdi. Shu bilan birga "Tuproq kartalarini tuzishda olib boriladigan generalizatsiya ishlarini 3 ta yo'nalishga ajratishi haqida quyidagi ma'lumotlarni yerib o'tdi: 1)tuproq klassifikatsiyasi, karta tuzish metodlari bo'yicha ishlar, ya'ni ustunlik qiladigan tuproq bo'yicha, yoki tuproq komponentlari va tuproq qoplami maydoni bo'yicha; 2) tuproq tarkibi bo'yicha ishlar, ya'ni tuproq qoplami komponentlari tarkibi, o'zaro bog'liqliklari va ularning geometrik xususiyatlari bo'yicha; 3)tuproq qoplami xususiyatiga qarab klassifikatsiyalar va tarkibni umumlashtirish yo'llari bo'yicha generalizatsiya ishlarini. Dars so'ngida talabalarni o'tilgan mavzu bo'yicha tezkor baholash uchun test savollari berildi va talabalar baholandi.



O'quv-uslubiy boshqarma uslubchisi Maftuna Tosheva axboroti